



XALQ DEPUTATLARI DO'STLIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

Do'stlik tuman Do'stlik ko'chasi 16 uy, +998 72 335 4165, dustlikkengash@mail.ru
2026-yil 21-iyul VII-16-92-3-47-K/26 Do'stlik tumani

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ko'rsatiladigan pullik xizmatlar tariflarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, tuman markaziy ko'chalaridagi tadbirkorlik subyektlariga sifatli obodonlashtirish va chiqindilarni tashib ketish xizmatlarini ko'rsatishni tizimli tashkil etish maqsadida, Do'stlik tumani Obodonlashtirish boshqarmasining 2026-yil 15-apreldagi 67-sonli xatini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-son "Mahalliy budjetlarda budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o'rinbosari A.Tinchlikovning tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida hududlarni obodonlashtirish va chiqindilarni olib chiqish xizmatlari bo'yicha hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Sanitar qoidalar va me'yorlariga asosan hududlar bo'yicha o'rnatilgan me'yorlardan iste'molchining faoliyat turidan, joylashuvidan va xizmatidan foydalanish usulidan kelib chiqib iste'molchi tomonidan 1 metr.kub QMCh (qattiq maishiy chiqindilar) hajmi uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarini

markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish xizmat haqqi summasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (S.Rashidov), tuman Tibbiyot birlashmasi (A.Abdufattayev), tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i (S.Rashidov), O'zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (T.Ergashova)lar fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorni ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari A.Tinchlikovga va nazorat qilish xalq deputatlari Do'stlik tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi G'.Yo'ldoshev, Agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi J.Ergashevlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**KULTAYEVA
MOXIDIL
NIZOMOVNA**

Xalq deputatlari Do'stlik tumani
Kengashining
2026-yil 21-iyuldagi
VII-16-92-3-47-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko'chalari bo'yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatish bo'yicha to'lov tariflari

Xizmat ko'rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki madel raqami	O'lchov birligi	Tarif miqdori (so'm)
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiqmaishiy chiqindilarni markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish (QQS bilan)	QMCh	1 m.kub	67 200